SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING SOHALARDA FOYDALANILISHI

CHDPU Pedagogika fakulteti
Pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi
Usarboyeva Munavvar Abdumo'min qizi,
Mamadiyeva Dildora Akbar qizi
dildora121206@gmail.com +998937221102
Ilmiy rahbar:**Allayorova Sarvinoz Baxtiyorovna**
CHDPU Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: XXI asr – texnologik yutuqlar asri deb baholanmoqda. Kelajak kadrlari muhit yangiliklaridan to'yingan holda ta'lim olishmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellekt vositalarining turlari, ularning sohalarda qo'llanilishi borasida so'z boradi. Sun'iy intelekt vositalari qanday vazifalarni amalga oshirishi, maqsadiga ko'ra turlari ham muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kompitensiya, texnologik vositalar, inklyuziv ta'lim,

Texnologiyaning jadallik bilan rivojlanishi jamiyatning har bir sohasida o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Foydalanuvchilar tomonidan bu holatga nisbatan turlicha munosabatlar vujudga keldi. Texnologiya kashfiyotlari tadqiqotchilar o'rtasida qizg'in bahs-munozaralarni keltirib chiqardi. Ayrim tadqiqot natijalari sun'iy intellek va uning sohalardagi integratsiya jarayonlarini ijobiy baholasa, ba'zilari ta'limdagi akademik natijalarning yaxshilanishida hech qanday ta'siri mavjud emasligini ta'kidlashadi. Shunday bo'lishiga qaramay, sohalarda sun'iy intellekt vositalardan faol qo'llanilmoqda. Hatto, ba'zi sohalar uning imkoniyatlari natijasida sezilarli o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Xo'sh, sun'iy intellekt vositalari asosan qanday vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanilmoqda (1-jadvalga qarang)?

1-Jadval

SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING VAZIFASIGA KO'RA TURLARI

Sun'iy intellekt vositalari					
Matn yaratish va tahlil qilish	Tarjima	Rasm yaratish	Ovoz bilan ishlash	Ta'lim uchun foydali vositalar	Video yaratish

Bugungi kunda sun'iy intellekt vositalarining juda ko'p turlari mavjud (1-jadval). Ular vazifasiga ko'ra bir qancha guruhlarga ajratiladi:

1. Matn yaratish va tahlil qilish maqsadida foydalaniluvchi sun'iy intellekt vositalari: ChatGPT, Google Gemini, Claude, Microsoft Copilot.
2. Tarjima ishlarini amalga oshirish maqsadida foydalaniluvchi sun'iy intellekt vositalari: Google Translate, DeepL.
3. Rasm yaratish maqsadida foydalaniluvchi sun'iy intellekt vositalar: Midjourney, Canva.
4. Ovoz bilan ishlashga mo'ljallanyan sun'iy intellekt vositalar: ElevenLabs, Otter.ai.
5. Ta'lim uchun foydali sun'iy intellekt vositalar: Quizlet, Kahoot, Grammarly.
6. Video yaratish maqsadida foydalaniluvchi sun'iy intellekt vositalar: Synthesia, CapCut.

Shu kabi texnologiya yutuqlari faoliyat doirasiga ko'ra turli sohalarda faol qo'llanilmoqda. "Masalan, Amazon yetkazib berish tizimini avtomatlashtirish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi. Facebook esa yuzni aniqlash texnologiyasining ishlashi uchun sun'iy intellektni joriy etdi. Sun'iy intellektni talabalar ta'limiga integratsiya qilish AQShdagi ta'lim muassasalarida uzoq yillardan beri mavjud bo'lgan amaliyotdir. Stenford universiteti sun'iy intellekt yordamida yaratilgan eng tez robot poygachini ishlab chiqdi, u aynan avtonom poyga tadbirlarida foydalanish uchun mo'ljallangan"[5]. Tezkorlik, tahlil imkoniyatlarining kengligi sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirmoqda. Bu esa vaqt o'tishi bilan ishchi kuchiga nisbatan muammoli vaziyatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Chunki sun'iy intellekt vositalarining faol integratsiya jarayoni resurs, vaqt, mablag', ishchi kuchini ham tejaydi. Ammo tezkor natijalarni talab qilayotgan raqamli dunyoda sun'iy intellekt afzalliklariga ko'z yumib bo'lmaydi.

Sun'iy intellektning ta'limga integratsiya qilinishi asosida akademik bilimlarning rivojlanishi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan istiqbolli ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, matnlarni o'qitishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish[2], ChatGPTni integratsiya qilish orqali o'quvchilarning mustaqil o'qishga doir matnlar yaratishi borasida ham kuzatishlar amalga oshirilmoqda[1]. Bunday tadqiqotlar ta'lim muhitida yanada samaradorlikka erishish maqsadida olib borilmoqda. Har bir yangilik rivojlanish, yuksalish uchun ko'mak vazifasini bajarmog'i lozim. Ta'limda texnologiya vositalarining faol integratsiya jarayoni pandemiya davrida tezlashdi. Dars jarayonlari onlayn muloqot asosida amalga oshirildi. Bu esa har ikki tomon foydalanuvchilaridan texnologik bilim savodxonligiga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi. "2023-yil boshida OpenAIning ChatGPT kabi yirik til modellariga asoslangan generativ AI vositalarining kutilmagan mashhurligi va keng tarqalishi o'qituvchilar hamda akademik siyosatchilarni texnologiyaning ta'limda qanday qo'llanilishiga yana e'tibor qaratishga majbur qildi"[3]. Ta'lim oluvchilar tomonidan sun'iy intellekt vositalaridan foydalanilishi bu jarayonni yanada teranroq tahlil qilish kerakligiga ishora qilmoqda. Bu holatni akademik natijalarni rivojlantirishga yo'llantirish muhim. Ko'chirmachilik, etik holatlar buzilishi oldini olish maqsadida to'g'ri yo'naltirish lozim.

"Sun'iy intellektdan inklyuziv ta'limda foydalanish orqali individuallashtirilgan ta'limni rivojlantirish, maxsus ehtiyojga muhtoj o'quvchilarning ta'limdagi ishtirokini rivojlantirish mumkin. Tadqiqotlardan olingan dalillar sun'iy intellekt vositalarining kognitiv to'siqlarni kamaytirish va o'qitishni qo'llab-quvvatlash imkoniyatining mavjudligi tasdiqlangan"[4]. Demak, tadqiqotlar ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Xulosa o‘rnida, yuqoridagi tadqiqotlar asosida sun’iy intellekt vositalarining turli sohalarga integratsiya qilinishi o‘zining istiqbolli kelajagini ko‘rsatgan. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonini yanada kengaytirish imkoniyatining vujudga kelishi kelajak kadrlarining sifat ko‘rsatkichlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, shaxs, sohalar va jamiyat rivoji uchun texnologik yutuqlardan etik qoidalarga muvofiq foydalanish ijobiy natijalarni taqdim etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BALANTEKİN, Y. Improving students’ reading, comprehension, and reading motivation through texts generated from their prompts using ChatGPT-4: a mixed-method study. *Humanit Soc Sci Commun* **13**, 9 (2026). https://doi.org/10.1057/s41599-025-06265-x
2. He X. et al. Enhancing reading comprehension with AI-generated adaptive texts //International Journal of New Developments in Education. – 2024. – Т. 6. – №. 7. – С. 46-52.
3. Kizilcec, R. To Advance AI Use in Education, Focus on Understanding Educators. *Int J Artif Intell Educ* **34**, 12–19 (2024). https://doi.org/10.1007/s40593-023-00351-4
4. Li, J., Yan, Y., & Zeng, X. (2025). Exploring Artificial Intelligence in Inclusive Education: A Systematic Review of Empirical Studies. *Applied Sciences*, *15*(23), 12624. https://doi.org/10.3390/app152312624
5. Liu, Z., & Yushchik, E. (2024). Exploring the prospects of using artificial intelligence in education. *Cogent Education*, *11*(1). https://doi.org/10.1080/2331186X.2024.2353464